

**“DUNYONING ISHLARI” ASARIDA XALQ QO’SHIQLARI
NAMUNALARI**

Ibragimova Madina

Urganch Davlat Universiteti filologiya va tillarni o’qitish:

O’zbek tili ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Barchamizga tanish bo’lgan sevimli yozuvchimiz O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari “ asarida xalq og’zaki ijodiga xos bo’lgan bir qancha namunalar mavjud. Ulardan eng qadimiy janr hisoblangan qo’shiqning bir necha turlari ushbu asarda keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar: xalq og’zaki ijodi, qo’shiq , kelinsalom, alla .

Barcahmizga ma’lumki yozma adabiyot namunalaridan oldin og’zaki adabiyot ,ya’ni xalq og’zaki ijodi yuzaga kelgan.Xalq og’zaki ijodining eng qadimiy namunasi sifatida qo’shiqlarni ko’rsatishimiz mumkin, Negaki inson eng qadimgi davrlardan boshlab ongli ravishda mehnat bilan shug’ullanishi yoki biror-bir yumush bajarish jarayonida o’zi istamagan holda turli ovozlar orqali “xirgoyi”lar qila boshlagan . Shular asosida turli mehnat qo’shiqlari , rivojlanish bosqichlarida esa marosim qo’shiqlari hsm yuzaga kelgan.

Xalq orasidagi qo’shiqlarning o’rganilishini tom ma’noda XI asrda yashagan qomusiy olim Mahmud Koshg’ariy nomi bilan bog’lash mumkin. Chunki “qo’shiq” termini birinchi bo’lib uning “Devoni lug’otit turk” asarida “qoshug’”shaklida “she’r’,”qasida” ma’nosida uchraydi.Shuningdek bu atama keyinchalik Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimatul adab” asarlarida ham xuddi shu ma’noda uchraydi. Xususan, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” va Zahiriddin Muhammad Boburning “Risolayi aruz” asarlarida ayolg’u , ashula ,o’lan nomi bilan ham tarqalgan va bular qo’shiqning turlarini atash uchun ishlatilgan deb qaraladi.

Xalq qo’shiqlarini tasniflash jarayonida marosim qo’shiqlari va mehnat qo’shiqlari kabi turlarga ajratamiz. Har ikki turdan ham hozirgi kunga qadar foydalaniladi .Bunday namunalarni nafaqat kundalik hayotimizda , balki yozuvchi adiblarimiz tomonidan yozilgan ko’plab asarlarda uchratishimiz mumkin. Ana shunday asarlardan biri xalqimizning suyukli yozuvchisi O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridir. Ushbu asar yozuvchining o’z onasi ,bolalikdagi xotiralari haqida .Asarda aslini olganda xalq og’zaki ijodiga oid ko’plab namunalar mavjud. Lekin dastlab to’xtaladiganimiz qo’shiq janridir .

Bilamizki, “Dunyoning ishlari “ hikoyalardan iborat . Asardagi dastlabki hikoya bo’lmish ‘Oq , oydin kechalar “ qismidanoq qo’shiq namunalarini ko’rishimiz mumkin :

Oymomaxon xulla,
Qanotlari tilla.
Subhon Ollo sizga
Umr bersin bizga .

Asarning bosh qahramoni Hakima aya tilidan aytilgan ushbu parcha ko’pchilik uchun uzoq umr tilab aytilgan.

Ayni shu hikoyada keltirilgan yana bir parcha :

Ochil-ochil, oq toshlar-a ,
Men onamni ko’rayin-a,
Diydoriga to’yayin-a.

Bu parcha hikoyada ona farzandiga so’zlab berayotgan ertak ichidagi baxtsiz bir qizchanning o’z onasini qo’msab yig’lab aytgan qo’shig’idir.

Asardan o’rin olgan yana bir hikoya ‘Ermon buvaning tilagi “ da ham kichik parcha bor:

Tog’da bulbul sayraydi,
Ko’rsam ko’nglim yayraydi .

Qissadagi “Gilam paypoq “ hikoyasida esa marosim folkloriga oid bo’lgan kelin salom namunasi mavjud .Bilamizki kelinsalomni aytib turuvchi ayol odatda salom aytilishi kerak bo’lgan insonning ko’rinishiga qarab o’sha joyning o’zida salom aytadi. Ana shu holat hikoyada ham uchraydi:

Karmonni katta ochgan
Ayamay pulni sochgan ,
Qorinlari qopday ,
Mo’ylovlari shopday
Qaynotasiga salom.

Chindan ham hikoyaga razm solsak qaynotaga – Isroil akaga “Isroil mo’ylov” laqabi berilgan:”Isroil mo’ylov uvali-juvali bo’linglar ,deb fotiha o’qidi”.

Tili bilan teng aylanadigan ,
Xizmatiga shaylanadigan ,
To’ydan quruq qaytmaydigan
So’zlari moyday , yuzlari oyday
Qaynonasiga salom .

Qaynona – Sepkilli xolaga ta’rif berilganda uning “to’ydan quruq qaytmasligi” aytib o’tilgan . Chunki hikoyaga diqqat qilsak: “To’ylarda laganmi, piyolami yo’qolsa , Sepkilli xolaning uyidan topishar , xola “esidan chiqib” uyiga olob ketgan bo’lar edi “, deya ta’riflangan .

Kelinsalom jarayonida kelin tushgan joyidagi qarindoshlariga alohida - alohida salom qiladi va salomchi ham shunga yarasha davom qilaveradi ,ya'ni har kimning ko'rinishi, xususiyatlaridan kelib chiqib salom aytadi:

Dutorini sayratgan ,
Dilimizni yayratgan ,
Zebi xolaga salom.

Kelinsalomning oxirida esa yoshi kichiklarga va qo'ni -qo'shnilarga umumiy qilib salom aytiladi . Bu ham hikoyadan o'rin olgan :- Assalomu alaykum, kelinsalom.Bir- biridan asal qaynisingillarga salo-o-m.-Assalomu alaykum , kelinsalom. Oyog'i olti ,qo'li yetti bo'lib xizmat qilgan, kelinning qo'lidan ishini oladigan , og'ziga oshini soladigan yon qo'shni – jon qo'shnilarga salo-o-m.

Qissadagi “O'ris bolaning oyisi” nomli hikoyada esa biroz hazin qo'shiq namunasiga duch kelamiz . Chunki hikoyadagi personajlardan biri Zebi xola bir vaqtning o'zida ham umr yo'ldoshidan , ham yakka -yu yagona farzandidan ayrilgan . O'sha payti urush bo'lganligi sababli bu hazin qo'shiqni necha-necha ayollar kuylashga majbur bo'lmagan deysiz:

Yor yurgan ko'chalarni supuray sochim bilsn,
Changi chiqsa suv sepay , ko'zdagi yoshim bilan.

Yolg'iz jigarbandidan judo bo'lgan onaning iztiroblari jam bo'lgan yana bir namuna :

Jon bolam, jonim bolam , qaylardasan bergil xabar,
G'amda boshim, ko'zda yoshim, ichganim bo'ldi zahar.
Za'farondek sarg'ayurman, hasratingda qon yutib,
Ko'zlarimning nuri ketdi , yo'llaringga ko'z tutib.

“Xo'ja” nomli hikoyada esa ayollar tomonidan odatda to'y marosimlarida kuylanadigan qo'shiq namunasidan parcha berilgan :

Shishani zargarga berdim to'tiyo bo'lgaymi deb,
Chin ko'ngilni yorga berdim oshno bo'lgaymi deb.

Qissani yakunlovchi hikoyalardan biri “Alla “ da esa go'dakligimizdan barchamizning jon -jonimizga singib ketgan alla namunasi berilgan . Barchasida bo'lgani kabi ushbu namunada ham onaning farzandiga bo'lgan ezgu tilaklari o'rin olgan :

Tog'lardagi shunqorim-ey alla,
Beshikdagi qo'chqorim-ey alla,
Yigitlarning sardori bo'l , jonim-a
Yuragimning madori bo'l , alla.

Xulosa qilib aytganda xalq og'zaki ijodi namunalarining barchasi , xususan qo'shiqlar ham yozma adabiyot uchun deyarli ajralmas qism deya olamiz va ular

orqali yozuvchi o'zi tanlagan qahramonlar hayoti va ichki dunyosini yanada yaxshiroq ochib bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari ". Global books". Toshkent-2021.
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/xalq-qo-shiqlari>